

UDC: 329 (043.3) (575,1)
ORCID: 0000-0002-9593-5890

SIYOSIY PARTIYANING HUQUQIY MOHIYATI VA UNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Shodmonov Mirzohid Muxtor o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti,
e-mail: shodmonovmirzoxid69@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirish va davlat va jamiyat hayotida ularning rolini kuchaytirish uchun qonunchiligimizga kiritilayotgan har bir o'zgartirishlar siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida muhim rol o'ynashi va erkin faoliyat yuritishini ko'zlab amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi mazkur yo'nalişda yanada zamonaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etadi. Maqola siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili masalasiga bag'ishlangan bo'lib, asosan, milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, xorijiy davlatlardan GFR, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Gruziya, Makedoniya, Ukraina kabi bir qator davlatlarning qonunchilik hujjatlari o'rganildi va milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy tahlili yuzasidan amaliy taklif va ilmiy xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, partiya, siyosiy guruh, sho'ro, partiya dasturi, partiya ustavi, ko'ppartiyaviylik, xalqaro tajriba.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ И ЕЕ ПРАВОВОЙ ПРИРОДЫ

Шодмонов Мирзохид Мухтор угли,
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В целях развития деятельности политических партий в нашей стране и усиления их роли в жизни государства и общества каждое изменение в нашем законодательстве должно быть направлено на обеспечение важной роли политических партий в общественной жизни и их свободной деятельности. Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве приоритета определяет развитие политической системы, усиление роли политических партий в жизни государства и общества и внедрение более современных механизмов в этом направлении. В статье рассматриваются понятие, правовая сущность и теоретико-правовой анализ политической партии, в основном посредством сравнительного анализа национального и зарубежного законодательства и научных исследований в этой области. В частности, были изучены законодательные акты ряда зарубежных стран, таких как Федеративная Республика Германия, Российская Федерация, Молдова, Азербайджан, Казахстан, Кыргызстан, Грузия, Македония, Украина, и проведен сравнительно-правовой анализ с национальным законодательством. В нашей исследовательской работе были даны практические предложения и научные выводы по понятию, правовой сущности и теоретическому анализу политической партии.

Ключевые слова: политическая партия, партия, политическая группа, совет, партийная программа, партийный устав, многопартийность, международный опыт.

THE CONCEPT OF POLITICAL PARTY, ITS LEGAL NATURE AND ITS THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Shodmonov Mirzokhid Muhtor ugli,
 Doctoral student
 of Tashkent state university of law

Abstract. In order to develop the activities of political parties in our country and strengthen their role in the life of the state and society, every change in our legislation is aimed at ensuring that political parties play an important role in public life and operate freely. The Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan identifies the development of the political system, strengthening the role of political parties in the life of the state and society as a priority and the introduction of more modern mechanisms in this direction. The article deals with the concept, legal essence and theoretical-legal analysis of a political party, mainly through the comparative analysis of national and foreign legislation and scientific research in this area. In particular, the legislative acts of a number of foreign countries, such as the Federal Republic of Germany, the Russian Federation, Moldova, Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Georgia, Macedonia, Ukraine, were studied and compared with national legislation. In our research work, practical suggestions and scientific conclusions on the concept, legal essence and theoretical analysis of a political party were given.

Keywords: political party, party, political group, council, party program, party charter, multiparty system, international experience.

Kirish

Bugungi kunda dunyodagi barcha demokratik davlatlarda siyosiy hokimiyatning shakllanishi ni siyosiy partiyalar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar demokratiya yuqori darajada rivojlangan davlatlarda ham o'z-o'zidan taraqqiy etmagan, balki uzoq tadrijiy yo'l bilan murakkab ijtimoiy muhitni boshdan kechirish orqali huquqiy islohotlar bilan rivojlangan. Bu jayron mamlakatimizda ham bosqichma-bosqich rivojlanib, siyosiy partiyalarning jamiyatimiz siyosiy hayotida faoliyati demokratlashib, ularning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratildi.

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, barcha demokratik davlatlarda siyosiy partiyalarning faoliyat yuritishida ijobiy natija uchun 3 ta muhim asos bo'lishi lozim:

1. Siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari;
2. Siyosiy partiyalar faoliyatining mafkuraviy-g'oyaviy asoslari;
3. Siyosiy partiyalar faoliyatining moddiy-teknik va moliyaviy asoslari.

Yuqorida ta'kidlangan uch omilni ilmiy tahlil qilar ekanmiz, har biri muhim ekanligi va bu asoslarni shakllantirmasdan turib siyosiy partiyalar faoliyatida yuqori natijaga erisha olmasligimiz va eng muhim jihat, demokratik jamiyatda fuqarolar siyosiy partiya tushunchasi va uning huquqiy mo-

hiyatini tushuna olmasliklari salbiy holat ekanligi ni anglashimiz lozim.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida birinchi ustuvor yo'nalish "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, uning birinchi bandi "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish" deb belgilanishi ham sohada siyosiy partiyalar tizimini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Shu o'rinda siyosiy partiyalarning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni modernizatsiya qilish hamda liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabr Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida shunday degan edi: "Bugungi siyosiy partiyalar faoliyatini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagani, davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy partiyalarning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida siyosiy partiyalar faoliyatining ochiqligi, mustaqilligini

ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'lab, hokimiyat shakllanishida ko'prik vazifasini bajaruvchi mexanizm yaratish lozim" [1].

Shuningdek, davlatimiz rahbari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini ilgari surayotganligi bu borada ham yana muhim qadamlardan biri bo'ladi, deb ta'kidshimiz mumkin [2].

Shu jihatdan tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili, asosan, milliy va xorijiy davlatlar qonunchilik hujjatlari va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan qiyosiy tahlil asosida ilmiy tadqiq qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad huquqiy jihatdan milliy va xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, milliy va xorijiy olimlarimizning bu boradagi ilmiy fikrlarini qiyosiy tahlil qilish orqali siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyatini nazariy-huquqiy jihatdan kengroq tavsiflash va ularning jamiyat hayotidagi o'rmini kuchaytirishdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik (sistematilik), determinizm tamoyillari, xronologik uslub, huquqiy taqqoslash uslubi, induksiya-dekuysi va boshqa ilmiy metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Hozirgi kunda har bir davlatda siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi, ularning siyosiy hayotdagi roli, davlat bilan o'zaro munosabatlarini belgilashda siyosiy partiya tushunchasini tahlil qilish va uning mohiyatini xalqimiz ongiga singdirishda siyosiy partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlar qabul qilinganligi, yurtimizda va xorijda ko'plab olimlarimizning bu borada ilmiy tadqiqot olib borganligi va bu jarayon davom etayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nafaqat respublikamiz, butun dunyodagi demokratik davlatlarda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar ning zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari qabul qilindi va siyosiy partiya tushunchasining huquqiy termin sifatida yuridik qoidasi yaratildi.

Biz qonunchilik hujjatlarida va olimlarning ilmiy tadqiqotlarida siyosiy partiya tushunchasiga berilgan ta'riflarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilishdan oldin siyosiy partiya so'zining lug'aviy-etimologik jihatiga e'tibor qaratadigan bo'sak, bu tushuncha o'ziga xos ma'nomazmunga

ega ekanligini kuzatamiz. Siyosiy partiya so'zining lug'aviy ma'nosini tahlil qilar ekanmiz, bu ikki so'z bir nechta tildan kelib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Siyosiy so'zi arabcha "سياسي" (siasiun), ya'ni "boshqarish" ma'nosini, partiya so'zi esa latin tili va fransuz tilida "pars", "particum", ya'ni "qism", "bo'lak" degan ma'nolarni anglatadi. Ular ni umumlashtirsak, "boshqaruvchi bo'lak", "boshqaruvchi qism" degan tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushuncha barcha davatlarda turlicha nomlar bilan atalgan va demokratik prinsiplar va tendensiyalar rivojlanishi bilan ularning nomlanishi, maqsad va vazifalari hamda faoliyat mexanizmi ham o'zgarib borgan. Masalan, birgina yurtimizda XX asrda "sho'ro" deb nomlangan siyosiy guruuhlar bugungi kunda siyosiy partiya sifatida ijtimoiy hayotimiz va davlatchiligidan siyosiy hayotida muhim o'rinn egallagan.

Siyosiy partiya tushunchasining huquqiy ta'rifi nafaqat milliy qonunchiligidan, balki boshqa mamlakatlar qonunchiligidan turlicha aks etgan. Buni bir nechta mamlakatlar qonunchiligi bilan milliy qonunchiligidan qiyosiy tahlil qilgan holda, ularga birma-bir to'xtalib, tadqiqotimiz doirasida o'z fikrlarimizni asoslab o'tamiz.

1. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunining 1-moddasiga ko'ra, "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir" (O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son), deb belgilangan.

Xorijiy mamlakatlardan biri Moldaviya Respublikasining siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunchiligidan siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya – bu Moldaviya Respublikasi fuqarolarining siyosiy manfaatlari va irodasini ifoda etuvchi va amalga oshiradigan, ixtiyorli, o'zini o'zi boshqaradigan, qat'iyatli a'zolik asosida tuzilgan jamoat birlashmasidir" [4].

Barcha sohada rivojlanib, yetakchi davlatlardan biriga aylanib borayotgan yana bir xorijiy mamlakatlardan biri Gruziya Respublikasining

"Fuqarolarning siyosiy birlashmalari to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Fuqarolarning siyosiy birlashmasi umumiy g'oyaviy va tashkiliy asosda tuziladi. Ushbu qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va amalga oshiradigan fuqarolarning ixtiyoriy mustaqil birlashmasidir. U Gruziya Konstitutsiyasi va qonunchiligi doirasida faoliyat olib boradi" [5].

Yevropa qit'asining eng demokratlashgan davlatlaridan biri Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligidagi partiyalar – Federatsiya yoki davlatlardan birida doimiy ravishda yoki uzoq vaqt davomida siyosiy iroda shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan va Bundestag yoki Landtaglardan birida xalqning vakolatxonasida ishtirok etishni istagan fuqarolarning birlashmalari, agar ular bunday niyatlarining jiddiyigini yetarli darajada kafolatlasa, ularning masalaga haqiqiy munosabating umumiy xususiyati va xususan, tashkilotning soni va barqarorligi, a'zolari soni va faol ijtimoiy faoliyati erkendir. Faqatgina shaxslar partiya a'zosi bo'lishi mumkin [5].

Siyosiy partiya tushunchasi Makedoniya Respublikasi qonunchiligidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa huquqlar hamda e'tiqodlarni amalga oshirish va himoya qilish hamda ishtirok etganda, siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan fuqarolarning ixtiyoriy tashkiloti hisoblanadi. Siyosiy partiyalar o'zlarining maqsadlariga siyosiy irodani shakllantirish va ifoda etish hamda saylovlarda qatnashish hamda boshqa demokratik yo'llar bilan erishadilar [6].

Mamlakatimizga qardosh bo'lgan davlatlar dan biri Ozarbayjon Respublikasi qonunchiligidagi siyosiy partiyalar fuqarolarning umumiy siyosiy g'oyalar va maqsadlarga ega bo'lgan, mamlakat siyosiy hayotida qatnashadigan birlashmalari deb ta'kidlangan. Siyosiy partiyalar Ozarbayjon Respublikasi fuqarolarining siyosiy irodasini shakllantirishda o'zlarining vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqib, Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ravishda faol qatnashadi [7].

Demokratik islohotlarda juda ko'plab murakkab jarayonlarni boshdan o'tkazgan qo'shni Qirg'iziston Respublikasi qonunchiligidagi siyosiy partiya tushunchasi qonunda fuqarolarning ixtiyoriy birlashishi deb tushuniladi. Ular umumiy si-

yosiy maqsad va vazifalarga ega bo'lib, aholining ma'lum bir qismining siyosiy irodasini amalgalashirishga hissa qo'shadi va o'zlarining vakillari orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashadilar [8], deb belgilangan.

Demokratik davlat shakllantirishda o'ziga xos tajribaga ega Qozog'iston Respublikasi qonunchiligidagi siyosiy partiya – bu Qozog'iston Respublikasi fuqarolarining ixtiyoriy birlashmasi bo'lib, u fuqarolarning, turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyyati, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillik va ijro etuvchi organlarida ularning manfaatlarini himoya qilish va ularning shakllanishida ishtirok etish maqsadida siyosiy irodasini ifoda etadi [9], deb ta'kidlab o'tilgan.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi juda ko'p jihatlarda norma ijodkorligi jaronida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi mu-rojaat qilgan va ularning bu boradagi tajribasidan foydalangan. Bu davlat ham barcha sohalar singari siyosiy partiya va ularni huquqiy tartibga solish va boshqa shunga oid masalalarda muayyan tajriba ega. Xususan, Rossiya Federatsiyasida siyosiy partiya – bu Rossiya Federatsiyasi fuqarolarining siyosiy irodasini shakllantirish va ifoda etish, jamoat va siyosiy aksiyalarda, saylovlarda va referendumlarda qatnashish, shuningdek, davlatda fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish orqali jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan jamoat birlashmasidir [10], deb belgilangan.

Yuqorida siyosiy partiya tushunchasini bir qancha davlatlar qonunchiligi misolida o'rganib chiqdik. Ularni umumiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ushbu tushunchaning nazariy-huquqiy asoslari va huquqiy mohiyatidagi umumiy jihatlar hamda farqli jihatlarni ko'rishimiz va farqlashimiz mumkin.

Xususan, siyosiy partiya nodavlat notijorat tashkilot ekanligi, siyosiy partiyaga birlashishning ixtiyoriyligi, jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etish huquqining mavjudligi kabi bir qancha holatlar milliy va xorijiy qonunchiligidan siyosiy partiya tushunchasida uzviy mushtaraklik va bog'liqlik borligini yaqqol ko'rsatadi.

Siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlilini yanada kengroq tadqiq qilish va o'rganish uchun bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan milliy va xorijiy olimiarimizning ilmiy tadqiqotlariga nazar solsak,

o'rini bo'ladi. Juda ko'plab tadqiqotchi olimlar bu borada ilmiy faoliyat olib borgan va bu jarayon davom etgan holda, birmuncha fundamental ilmiy asoslar yaratilgan. Shu o'rinda siyosatshunos olim Sh. Mamadaliyevning quyidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: "Partiya kishilarni ma'lum bir g'oya atrofida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan, o'z g'oyasini hayotga tatbiq etish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib boruvchi, o'zining dasturi, nizomi, tarkibiy tuzilishiga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir" [11, 33-b.].

O'z sohasining yetuk tadqiqotchi olimi bo'lgan R. Douz: "Siyosiy partiya jamoat tashkilotlarining eng siyosiysi hisoblanadi", deb aytgan edi. Shuningdek, tadqiqotchi olim E.Berk "Partiya milliy manfaatlar uchun hamkorlik qilish maqsadlarida uyushgan, ba'zi bir prinsiplar yuzasidan bir xil qarashlarga ega kishilarning tashkilotidir", deb ta'kidlagan. Tadqiqotchi olim V. Xasbax esa partiyani quyidagicha tushuntirishga harakat qilgan: "Partiya bir xil siyosiy qarashlar va maqsadlarga ega bo'lgan, o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish maqsadlarida siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan kishilar ittifoqidir" [12, 30-31-b.].

Yuqoridagi keltirilgan olimlarimizning siyosiy partiya tushunchasiga oid ilmiy fikrlari bugungi kunda o'z isbotini topgan va ilmiy fundamental asoslar yaratilgan.

Bundan tashqari, yana bir tadqiqotchi olim M. Veber ilmiy faoliyatini kuzatar ekanmiz, u siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Partiyalar a'zolikka qabul qilishning ixtiyoriyligiga asoslangan, o'z oldiga faol a'zolarining moddiy foyda yoki shaxsiy imtiyozlar olishi uchun ma'naviy va moddiy sharoitlar yaratish hamda o'z rahbariyati uchun siyosiy hokimiyatni egallash maqsadini qo'ygan jamoat tashkilotlaridir" [13, 677-b.].

Siyosiy partiya tushunchasiga olimlarimiz tomonidan "Yuridik ensiklopediya"da ham qisqa va lo'nda yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Unda siyosiy partiyaga ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot [14, 392-b.] deb ta'rif berilgan. Siyosiy partiya tushunchasi va uning huquqiy mohiyatini kengroq anglar ekanmiz, u boshqa siyosiy klublardan shunisi bilan farqlanadiki, ular o'z saflariga mumkin qadar ko'proq a'zolarni jalb etish, siyosiy kurashning qonuniy usullaridan keng foydalanish hamda faqat saylovlardan davri bilan cheklanmagan faollikkaga.

intilish hamda bu orqali davlat va jamiyat boshqaruvida, vakillik hokimiyati shakllanishida muhim ahamiyatga egaligini bilishimiz mumkin.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida partiya "Ijtimoiy guruuhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar" [15, 698-b.], deb ta'rif berilgan. Ushbu ta'rif ham siyosiy partiya tushunchasining mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Huquqshunos olim I. Bekov ilmiy tadqiqotlarda siyosiy partiyaga shunday ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya – siyosiy manfaatlar mushtarakligi asosida birlashgan, davlat hokimiyatining saylanadigan organlarini shakllantirish va ular faoliyatida ishtirok etish, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni ta'minlashning asosiy maqsadi sifatida belgilagan fuqarolarning birlashmasidir [16, 25-b.]".

Mashhur fransuz siyosatshunos olimi M. Dyuverje o'zining «Siyosiy partiyalar» asarida «Siyosiy partiya davlat va xalq manfaatlarini ifoda etuvchi, umummilliy manfaatlar, sinflar, ijtimoiy guruuhlar manfaatlari ustunligini ta'minlaydigan va jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlovchi erkin birlashmadir» [17, 89-b.], deb o'z ilmiy qarashlarini ilgari surgan.

Xulosalar

Siyosiy partiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan va olib borayotgan milliy va xorijiy olimlar ilmiy ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ularagi ilmiy mulohazalar, bildirilgan ilmiy g'oyalari siyosiy partiyalar mohiyatini yanada teran anglash, nazariy tahlil qilish, siyosiy partyaning huquqiy mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam berishini alohida ta'kidlamoqchimiz.

Biz esa yuqoridagi ilmiy fikrlar asosida siyosiy partiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif etmoqchimiz: "Siyosiy partiya jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlarning xohish-irodasi asosida vujudga kelib, tegishli vakolatli organ tomonidan qonuniy ro'yxatdan o'tgan va o'z elektoratlarining manfaatini himoya etgan holda, saylov jarayonlarida qatnashib, siyosiy hokimiyat uchun kurashuvchi hamda saylangan vakillari orqali umum davlat manfaati uchun xizmat qiladigan fuqarolarning ixtiyoriy-ko'ngilli jamoat birlashmasidir".

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, mammakatimizda demokratiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida Buyuk Britaniyaning

The Economist Intelligence Unit kompaniyasining 2020-yildagi tadqiqot natijasiga ko'ra, O'zbekiston Demokratiya indeksida 167 ta mamlakat ichida 155-o'rinni qayd etdi [18].

The Economist Intelligence Unitning yillik tadqiqotlariga tayanib, uning natijalarini quyidagi jadval asosida o'tgan yillarga solishtirgan holda tahlil qilishimiz mumkin [19].

Jadval
Xalqaro demokratiya indeksi

Nº	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Jami davlatlar soni	167	167	167	167	167	167	167	-
O'zbekiston Respublikasi	154	158	158	158	156	157	155	-

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda nati-jaga baho berar ekanmiz, to'g'ri, buni ijobiy holat deb bo'lmaydi, lekin mamlakatimizda demokratik islohotlar jarayonida, xususan, siyosiy partiyalar faoliyatidagi islohotlar natijasi oldinga o'zgarayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu jaryondagi huquqiy islohotlar izchil davom ettirilsa, albatta, 2021-yil uchun e'lon qilinadigan Xalqaro Demokratiya indeksida ijobiy natijaga erishishimiz mumkinligini alohida ta'kidlashimiz joiz.

Tadqiqot ishimizda siyosiy partiya tushunchasi, mohiyati va uning nazariy-huquqiy tahlili masalasi yuzasidan amaliy taklif va ilmiy xulosalarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- siyosiy partiya tushunchasini tushunish jamiyat siyosiy tizimida siyosiy partyaning o'rni va jamiyat siyosiy hayotidagi maqsad va vazifasini anglashga yordam beradi;

- siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati tahlil etilganda, milliy va xorijiy qonunchilik asosida qiyosiy o'rganish, huquqiy va tashkiliy asoslarining o'ziga xos xususiyatlari bevosita shakllanish va rivojlanish jarayonida ularning huquqiy asoslari o'zgarishi bilan mustahkamlanib boradi va takomillashadi;

- jamiyatni demokratlashtirish sharoitida siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati tahlil etilganda, milliy va xorijiy olimlarimiz ilmiy tadqiqotlari asosida o'rganish va ilmiy tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish va amaliyotga joriy etish har bir siyosiy partyaning jamiyat siyosiy hayotidagi faolligi va aholi manfaatlarini qaydajada himoya qilishga ta'sir etadi. Shuning uchun siyosiy partiya tushunchasi, huquqiy mohiyati, nazariy-huquqiy tahlilining o'ziga xos xususiyatlari chuqur tanqidiy tahlil etish o'rnlidir;

- siyosiy partiya tushunchasining nazariy-huquqiy tahlilini o'rganish, uning fundamental huquqiy asoslarini yaratish jamiyat ijtimoiy hayotida, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ongi shakllanishida muhim mezon hisoblanadi. Eng muhimi, siyosiy partiyalarning demokratik jamiyatdagi o'rni naqadar muhimligini anglatgan holda, fuqarolarning siyosiy jarayonda faol qatnashishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. Available at: <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017/>.
2. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi [Speech of the newly elected President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the joint session of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan dedicated to the inauguration ceremony]. Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/4743/>.
3. Zakon Respublikni Moldova o politicheskikh partijah ot 12.04.2016 [3. Law of the Republic of Moldova on political parties of 12.04.2016]. Available at: [http://www.vspmr.org/legislation/laws/zakonodateljnie-akti-pridnestrovskoy-moldavskoy-respublikи-v-sfere-realizatsii-politicheskikh-prav-i-svobod-grajdan/zakon-pridnestrovskoy-moldavskoy-respublikи-o-politicheskikh-partiyah.html/](http://www.vspmr.org/legislation/laws/zakonodateljnie-akti-pridnestrovskoy-moldavskoy-respublikи-v-sfere-obrazovaniya-kuljturni-sporta-molodejnaya-politiki-sredstv-massovoy-informatsii-a-takje-v-sfere-realizatsii-politicheskikh-prav-i-svobod-grajdan/zakon-pridnestrovskoy-moldavskoy-respublikи-o-politicheskikh-partiyah.html/).

4. Zakon Gruzii o politicheskikh partijah ot 08.05.2012 [Law of Georgia on Political Parties dated 08.05.2012]. Available at: <http://www.matsne.gov.ge/>.
5. Zakon Ukrayini o politicheskikh partijah ot 14.04.2009 [Law of Ukraine on Political Parties dated 04/14/2009]. Available at: <http://www.pravoznavec.com.ua/books/letter/280/%D2/20782/>.
6. Law on political parties of the Republic of Macedonia dated 07.06.2005. Available at: <https://www.legislationline.org/documents/id/5661/>.
7. Zakon Azerbajdzhanskoy Respubliko o politicheskikh partijah ot 03.06.1992 [Law of the Republic of Azerbaijan on political parties of 03.06.1992]. Available at: <https://www.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/ru/az/az-057ru.pdf>.
8. Zakon Kirgizskoj Respubliko o politicheskikh partijah ot 12.06.1999 [Law of the Kyrgyz Republic on Political Parties of 12.06.1999]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/215?cl=ru-ru/>.
9. Zakon Respubliko Kazahstan o politicheskikh partijah ot 15.07.2002 [Law of the Republic of Kazakhstan on political parties of 15.07.2002]. Available at: [https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1032141/](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1032141).
10. Federal'nyj zakon Rossijskoj Federacii o politicheskikh partijah № 95-FZ ot 11 iulya 2001 goda (s izmenenijami ot 2 dekabrya 2019 goda) [Federal Law of the Russian Federation on Political Parties No. 95-FZ of July 11, 2001 (as amended on December 2, 2019)]. Available at: <https://rg.ru/2001/07/11/partii-dok.html>.
11. Mamadaliyev Sh. Xalq hokimiyatchiligi [People's government]. Tashkent, 2003, p. 33.
12. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyat: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar [Civil society: political parties, ideologies, cultures]. Tashkent, 1998, pp. 30-31.
13. Veber M. Izbrannye proizvedenija. Per. s nemez. [Selected works. Translated from German]. Moscow, 1990, p. 677.
14. Yuridik ensiklopediya [Legal encyclopedia]. Tashkent, 2001, p. 392.
15. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [National Encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, 2003, vol. 6, p. 698.
16. Bekov I.R Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) [Improving the organizational and legal framework for the participation of political parties in the activities of representative bodies of state power. Doctor of Law Dissertation (DSc)]. Tashkent, 2021, p. 25.
17. Duverger M. Les parties politiques. Paris, 1967, p. 89.
18. O'zbekiston Respublikasi Milliy huquqiy internet portal [National Legal Internet Portal of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <http://huquqiportal.uz/news/2021/02/03/uzbekistonning-demokratiya-indeksida-gi-urni-yaxshilandi/1034/>.
19. Democracy Index 2017: Free speech under attack. Available at: https://www.eiu.com/public/topical_report.aspx?campaignid=DemocracyIndex2017/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.